

Yosh olimimiz Yaponiyada tajriba oshirib qaytdi

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi instituti katta ilmiy xodimi Nabiyev Ayder Mustafayevich 2022-yil dekabr oyida Yaponiyaning xalqaro hamkorlik agentligi (JICA) tomonidan tashkil etilgan «Развитие человеческих ресурсов высокого уровня в промышленности с помощью инженерного образования в японском стиле» nomli o'quv kursida Yaponiya davlatida malakasini oshirib keldi. O'quv kursida Yaponiyaning muhandislik ta'limiga, intellektual mulk, texnologiyalarni litsenziyalashtirish, ekologiya va tibbiyot sohalaridagi zamonaviy talablar va erishilayotgan yutuqlarilarni o'rganish orqali yangi bilim va ko'nikmalarni egallandi.



Yaponiyaning MIE universiteti, Nagoyya texnologik instituti va Tokio texnologik institutlarining muhandislik ta'limidagi zamonaviy tajribasi o'rganildi hamda FUJIFILM MANUFACTURING Co., Ltd, "Uno Dzyuko" kompaniyalari, Atrof muhitni muhofaza qilish agentligi va boshqa tashkilotlar faoliyati bilan tanishib chiqildi. O'quv kursida O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston va Moldovaning vakillari qatnashdi. Kelgusida o'zaro hamkorlik qilishga kelishib olindi.